



O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mahmudova Iroda Jasur qizi

Samarqand chet tillari instituti

Ingliz tili filologiyasi va tarjimashunoslik talabasi

Irodam917@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilining tarixi, davlat tili maqomini olguncha bo'lgan davri, davlat tili sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Maqolada 1989-yilda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, mustaqillik davrida o'zbek tilining ijtimoiy tomonlama oshgan mavqei hamda zamonaviy til siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun tarixiy manbalar, qonuniy hujjatlar va Prezident farmonlari asos qilib olingan. Maqola o'zbek tilining milliy g'urur, o'zlik va ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni ekanligini hamda kelajakdagi rivojlanish yo'llarini bayon etadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek tili, til tarixi, davlat tili, Shavkat Mirziyoyev, til siyosati, qonun, milliy o'zlik, ma'naviyat.*

Kirish: Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda 7000dan ortiq tillar mavjud. Ularning har bir o'z paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanish bosqichlariga ega. Xuddi shunday bizning ona tilimiz, o'zbek tilimiz, ham shunday bosqichlardan o'tib kelgan uzoq tarixiga ega tillar orasidan joy olgan. O'zbek tili- Oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi til va ayni damda ushbu til O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra davlat tili hisoblanadi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida ijtimoiy, siyosiy va rasmiy faoliyatlarning barchasi o'zbek tilida olib boriladi. Maqolaning maqsadi- o'zbek tilining davlat tili sifatida shakllanish jarayonlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish, uning tarixiy asoslarini va hozirgi davrdagi rivojlanish yo'nalishlarini yoritishdan iborat.

Tilshunolar O'zbek tilini tarixan uch bosqichga bo'lish mumkiligini aytishadi: qadimiy turkiy til, qadimgi o'zbek va zamonaviy o'zbek tillariga.

Qadimgi turkiy til.

Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab hind-eron qabilalarini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo'lib, uning asosida keyinchalik ko'plab Osiyo tillari paydo bo'lgan. Tilimizning bu bosqichida o'sha davr allomalariga tegishli nodir asarlar ham saqlanib qolgan. Biz bunga misol qilib, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'atit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarini misol qilishimiz mumkin.

Qadimgi O'zbek tili.



Ikkinchi bosqich XI-XIX asrlariga to'g'ri keladi. Shu vaqt mobaynida o'zbek tili ko'lab qo'shni tillar ta'sirida rivojlandi, ayniqsa, arab, fors tillari. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo'shdi. Bu shaklda u XIX asrning oxirigacha o'zgarishsiz ishlatilgan. Bu davrda, shuningdek, Lutfiy, Jomiy kabi buyuk shaxslarni ham o'sha davr turkiy tili adabiyoti va ravnaqiga o'z asarlari bilan hissasini qo'shgan deb istisnosiz ayta olamiz.

Hozirgi O'zbek tili.

XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. Bu bosqichda adabiy til normalari yanada demokratiklashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.

Biroq XIX-XX asrlarda yurtimiz tarixida bo'lgan SSSR mustamlakasi nafaqat o'zbek xalqi, balki bizning milliy tilimiz uchun ham tub burilish yasadi. Sovet davrida ham o'zbek tili maktab, madaniyat va xalq og'zaki ijodida saqlanib qoldi, ammo davlat boshqaruvi, ilmfan, texnika sohalarida rus tili yetakchilik qildi. Tilshunos olimlardan Fitrat, Cho'lpon, Qodiriylar xalqni o'z tiliga hurmat ruhida tarbiyalashga harakat qilganlar. Shunga qaramay, 1960-1980-yillarda o'zbek tili jamiyatning rasmiy qatlamlarida ikkinchi darajali til sifatida qaralgan. Bu esa tilni himoya qilish harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

1989-yil 21-oktabr o'zbek xalqi uchun unutilmas sanalardan biri bo'ldi. Shu kuni O'zbekiston SSR oliy Soveti tomonidan "davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unda "O'zbekiston Respublikasining davlat tili - o'zbek tilidir" deb belgilandi. Bu voqea o'zbek xalqining milliy o'zligini, mustaqil tafakkurini va tarixiy qadriyatlarini tiklash yo'lidagi katta qadam bo'ldi. Mazkur qonun o'zbek tiliga huquqiy asos yaratdi, uni ta'lim, matbuot, madaniyat, davlat boshqaruvi sohalarida qo'llash imkonini berdi. Shu bilan birga, qonunda boshqa millatlar tillariga ham hurmat bilan munosabatda bo'lish zarurligi qayd etildi.

Mustaqillik yillarida til siyosati.

O'zbekistonning milliy mustaqilligi, shubhasiz, ona tilimiz uchun ham keng yo'l ochdi. Necha asrlar mobaynida goh yuksak rivoj-u shuhrat topgan, gohida nopisandlik, turtkilash va kamsitishlardan ezilgan, ammo yorug' kunlarga yetmoq umidi so'nmagan tilimiz chinakam munavvar kunlarga beshikast yetib keldi. Ayniqsa, bugungi kunda "Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish" sari degan ustuvor g'oya asosida o'z taraqqiyotining tamomila yangi bosqichiga dadil qadam qo'yayotgan mamlakatimizda barcha sohalaridagidek davlat tilining o'rni va nufuzini oshirish borasida ham tub burilish jarayonlari boshlandi.

Zamonaviy bosqich: til siyosatini takomillashtirish.

So'nggi yillarda o'zbek tili siyosatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2019-yil 21-oktabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan "O'zbek tili bayrami kuni" joriy qilindi. 2020-yil 20-oktabrda esa PQ-4851-sonli qaror qabul qilinib, davlat organlari va tashkilotlarda davlat tilida ish yuritish tizimini kuchaytirish vazifasi belgilandi. Prezidentimiz Mirziyoyev o'z nutqlarida: "Davlat tilining nufuzi - xalqning ma'naviy kuchi va milliy o'zligining ifodasidir", -deb ta'kidlagan. Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat mamlakat ichida, balki





xalqaro miqyosda ham o'rganilmoqda. Turkiya, Rossiya, AQSh, Janubiy Koreya kabi davlatlarda o'zbek tili kurslari tashkul etilgan, xorijiy universitetlarda o'zbek tili kafedralar faoliyat yuritmoqda. Biz bu bosqichni ikkilanmasdan o'zbek tilining global maydonga chiqishi va nufuzini oshirish bosqichi deb baholashimiz mumkin.

Biroq, hozirgi kunda yer yuzida qaysidir tilning insonlar orasida kengayib, rivojlanib borayotgani yoki tillar orasidan mutlaqo yo'qolib, o'lik tillar orasiga kirayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Bunga sabab esa o'sha tilda suhbatlashadigan ya'ni, o'sha tilning asl egalari. Sababi til- ijtimoiy hodisa va uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati insonlar bilan bog'liq. Shunday ekan milliy tilimiz yanada rivojlanib nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda ham ravnaq topishiga harakat qilishimiz va yosh avlodga til milliy g'ururimiz, o'zligimizni anglatib turuvchi bebaho ne'mat ekanligini singdirishimiz va ular orasida shunday targ'ibot ishlarini amalga oshirishimiz kerak.

Xulosa: O'zbek tili- xalqimizning tarixiy xotirasi, ma'naviy boyligi va milliy o'zligining timsolidir. Uning davlat tili sifatida shakllanishi oson kechmagan: tarixda siyosiy bosimlar, madaniy cheklovlar bo'lgan davrlardan boshlab, huquqiy tan olinishi va mustaqillik davrida qayta tiklanish jarayonigacha uzoq yo'l bosib o'tilgan. 1989-yilgi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun o'zbek tiliga tarixiy maqom berdi. Mustaqillik yillarida esa til siyosati yanada kuchaydi, uning nufuzi jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'sdi. Bugungi kunda o'zbek tili davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat, diplomatiya va axborot texnologiyalari sohalarida faol qo'llanilmoqda. Shuningdek, hozirda ochiq manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 24 millionga yaqin, Afg'onistonda- 3 million, Tojikistonda- taxminan 1 o'zbek tilining rivoj million, Qozog'istonda- 500.000, Turkmanistonda- 350.000ga yaqin, Rossiyada- 300.000 kishi o'zbek tilida so'zlashar ekan. O'zbek tilining rivojlanish bosqichlari shuni ko'rsatadiki, til faqat aloqa vositasi emas - u millatning o'zligini, g'ururini va mustaqilligini ifodalaydigan eng muhim omildir. Shuning uchun har bir fuqaro davlat tilini chuqur o'rganish va qadrlash orqali milliy yuksalishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni - 1989-yil 21-oktabr (yangi tahriri: 1995-yil 21-dekabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr. (4-modda: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili - o'zbek tilidir").
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni - "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-sonli Qarori - "Davlat tilini rivojlantirish va qo'llash tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2020-yil 20-oktabr.
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.



6. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
7. Qosimov, B. (2021). Til va milliy ong. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Yo'ldoshev, M. (2010). Til siyosati va milliy o'zlik. Toshkent: O'qituvchi.
9. Madrahimov, A. (2015). Davlat tili va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent: Universitet nashriyoti.
10. Xudoyberganova, M. (2019). O'zbek tilining ijtimoiy funksiyalari va davlat siyosatidagi o'rni. Toshkent: Fan va texnologiya.

